

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN









**2023**

**3-son**

(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

 TAHRIRIYAT	
	4
 TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
F. Kuchkarova	Talabalarni sanogen tafakkurini rivojlantirish omillari
M. Xasanova	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish
N. Turdiyev	Bo'lajak o'qituvchilarda daxldorlik hissini shakllantirish
J. Xamidov	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovatsion klaster yondashuvi asosida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish
N. Valiyeva	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari
 TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI	
X. Orzikulov	Talabalarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika fanini o'qitish misolida)
A. Qosimov	Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari va uning xususiy metodikadan farqi
M. Boratova, O. Ishboeva	Biologiyani o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning uzviyligi va uyg'unligi
 TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT	
N. Temirov	Oliy ta'lim sifatini baholashning xorijiy modellari va o'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tahlili
 ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
N. Abdunazarova	Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuv va ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari
D. Pulatova	Oliy ta'limda aralash ta'limni tashkil etish tendensiyalari
D. Farsaxonova	Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
 MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
B. Narzullaeva	Mahallalarda millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
S. S. Meliboyeva	Milliy hunarmandchilik – voyaga yetayotgan qizlarni ijtimoiylashtirish omili sifatida
B. Xusanov	Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash metodikasi
 TA'LIMDA MENEJMENT	
N. Abdullaeva	Maktabgacha ta'limda menejment, zamonaviy yondashuv va samarali shakllar
Z. Mahmudova	Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni maqsadli boshqarishning dolzarb vazifalari
 TA'LIMDA MARKETING	
Sh.Y. Yusupova	Moliyaviy savodxonlikni shakllantirish pedagogik muammo sifatida: pisa tadqiqoti tahlillari

 <b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>	
<b>M. Shermatov</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyat kompetentligini shakllantirish metodikasi (Futbol texnikasi misolida)
<b>A. Jumayev</b>	Gimnastika darslarida shikastlanish sabablari va uni oldini olish
<b>R. Mamatqulov</b>	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini klaster metodi vositasida rivojlantirish
<b>Sh. Boltayev</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatlarida innovatsion klaster metodini qo'llash samaradorligi (Voleybol sport turi misolida)
 <b>PSIXOLOGIYA</b>	
<b>F. Usmanova</b>	Oliy ta'lim muassasalari talabalarining madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari
 <b>TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATI</b>	
<b>D. Muminova</b>	Kitob va kitobxonlik – inson ma'naviyati ko'zgusi
 <b>MUSIQA VA SAN'AT TA'LIM</b>	
<b>A. Rahimov</b>	Maktab yoshidagi bolalarda tasviriy san'atning savodxonlik elementlarini takomillashtirish
<b>D. Amanova</b>	Bolalarni musiqa cholg'ularini chalishga o'rgatish faoliyatining ilk qadamlari
<b>Sh. Bekmuratova</b>	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligini tuzilmasi va mohiyati
 <b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>	
<b>G. Nazirova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida inklyuziv kompetensiyani takomillashtirish
<b>M.M. Rizayeva</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish
<b>D. Asqarova</b>	Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish aspektlari
 <b>ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR</b>	
<b>N. Fayzullaeva</b>	Ta'limni raqamlashtirish kontekstida universitet o'qituvchisining pedagogik faoliyatidagi o'zgarishlar
 <b>СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ</b>	
<b>A. Абдурахманова</b>	Компетентные основы проектного подхода в становлении специалистов

---

**Shamshodjon BOLTAYEV,**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,  
“Jismoniy madaniyat metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

## **BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATLARIDA INNOVATSION KLASTER METODINI QO‘LLASH SAMARADORLIGI (Voleybol sport turi misolida)**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatlarida klaster metodini qo‘llash, shuningdek, voleybolchilarni texnik mahoratlarini oshirish, o‘quv mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Jismoniy tarbiya va sport, voleybol sport turi, yosh voleybolchilar, mashg‘ulot jarayoni, texnika, mahorat, innovatsiya, klaster, metod.

В данной статье представлена информация о применении кластерного метода в профессиональной деятельности будущих учителей физической культуры на основе инновационного подхода, а также о совершенствовании технического мастерства волейболистов посредством эффективной организации тренировочного процесса.

**Ключевые слова.** Физкультура и спорт, волейбол как вид спорта, юные волейболисты, тренировочный процесс, техника, мастерство, инновации, кластер, метод.

This article provides information on the application of the cluster method in professional activities of future physical education teachers on the basis of an innovative approach, as well as the improvement of technical skills of volleyball players through it, the effective organization of the training process.

**Key words.** Physical education and sports, volleyball sports, young volleyball players, training process, technique, skill, innovation, cluster, method.

**O**‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasini isloh qilishdagi asosiy maqsadlaridan biri – pedagog kadrlarni zamon talablariga mos tarzda tayyorlash, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha bir necha vazifalar belgilab berildi.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab pedagog va psixolog olimlar o‘z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an‘ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish uchun metodik qo‘llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo‘yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida barcha sohalarga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning maqsadi, pirovardida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga qaratilgan, tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish yaxshiroq natija beradi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri “**klaster modeli**” bo'lib, bugungi kunda u O'zbekistonda ko'proq agrar, to'qmachilik va yengil sanoat sohalarida keng qo'llanilmoqda. Qisqa muddatlar ichida klaster modeli iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo'nalish sifatida e'tirof etildi va ushbu modelni boshqa sohalarda qo'llash tajribalari amalga oshirilmoqda.

Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Demak, klaster yondashuvi bu:

– alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va bosh.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalarni birlashtirishning tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;

– ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma;


– ta'lim, fan, ishlab chiqarish tizimlarida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi;

– tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli.

Ma'lumki, sport o'yinlarida, shu jumladan, voleybol sport turida ham barcha texnik-taktik harakatlarni o'zgaruvchan vaziyatlarda tezkor shiddat asosida ijro etish talab qilinadi. Binobarin, voleybol sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish, texnik-taktik harakatlarga o'rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o'zgaruvchan yo'nalishli mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg'ulotlarining qanday tashkil qilish va o'tkazishga bog'liqdir. Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda, sportchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, texnik va taktik tayyorgarligini bilish zarurdir. Shu bilan birgalikda, yosh voleybolchilar misolida tezkorlik sifatini rivojlantirishda innovatsion mazmunli harakatli o'yinlar va ixtisoslashtirilgan pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilgan fikrlarni to'laqonli amalga oshirish uchun murabbiydan kerakli bilim va mahorat talab qilinadi. Yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik hamda vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Voleybolchilarni samarali tayyorlash texnologiyasi o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va boshqarish, jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholash, sport natijalarini shakllantirish, musobaqa oldi tayyorgarlik va musobaqa faoliyatini nazorat qilish bo'yicha samarali tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Quyida voleybol sport turi bo'yicha klaster modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modelda voleybol sport turiga oid terminlardan foydalangan holda voleybolchilarning fikrlash doirasi va qiziqishini

oshirish maqsad qilingan.  
( 1-rasm)



### KLASTER metodi

Jismoniy tarbiya va sport sohasida kutilayotgan har qanday innovatsion, ilmiy-texnologik taraqqiyot, bitiruvchi kadrlar salohiyati, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarda rejalashtirilayotgan yangi fan yo'nalishlarining majmuaviy (diagnostik) nazorat va korreksion faoliyat mazmundorligi bilan bog'liq. Innovatsion yo'nalishda yaratiladigan har qanday ishlanma sohaning ilmiy-metodik, boshqaruv, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport trenerlari uchun faoliyat dasturi bo'lib xizmat qiladi.

Voleybol sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish, texnik-taktik harakatlarga o'rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o'zgaruvchan yo'nalishli mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish esa sport mashg'ulotlarining qanday tashkil qilinishi va o'tkazilishiga bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/pdfs/5841063>.
2. Mukhamedov G.I., Khodjamkulov U.N., Shofkorov A.M., Makhmudov K.S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ
3. Пулатов А.А., Исраилов Ш.Х. Волейбол назарияси ва услубияти. Ўқув қўлланма. Т.: 2007. – 148 б.
4. Pedagogik texnologiya: Darslik/ Tolipov O'Q., Hasanov M.H., Ma'murov B.B., Davronov I.E. – Buxoro. "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. –220-b
5. Boltayev Sh. Vocational guidance of future physical education teachers based on the cluster approach. International bulletin of applied science. and technology.ibast. Volume 2, Issue 12, December. 2022.